O‘QUVCHILARNING FAOLLIGINI OSHIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING AHAMIYATI

Ikromova Marjona Ibrohim qizi Namangan Davlat Chet Tillar Instituti talabasi

Email: marjonaikramova118@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘quvchilarning faolligini oshirishda turli pedagogik metodlarning ahamiyatini tahlil qiladi. Ta’lim jarayonida bunday interfaol metodlardan foydalanish o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishlarni oshiribgina qolmay, o’zlarini mustaqil fikrlarni yoritib berish va bilimlarini samarali o’zlashtirishga xizmat qilishi yoritiladi. Shuningdek, to’g’ri tanlangan metodlar orqali o’quvchilarning dars jarayonidagi ishtirokini faollashtishi ko’rsatib o’tiladi. Ko’plab tadqiqot natijalariga ko’ra, zamonaviy pedagogikada yondashuvlardan foydalanish ta’lim samaradorlini oshirishda muhim rol o’ynaydi.

Kalit so’zlar : Metodlar, an’anaviy usullar, interaktiv, passiv, vazifa, samarali, loyiha asosida o’rgatish, harakatga keltirmoq, rolli o’yinlar, qiziqarli topishmoqlar, erkin g’oya tanlash

The Importance of Interactive Methods in Enhancing Students’ Engagement

Ikromova Marjona Ibrohim qizi

Student at Namangan State Institute of Foreign Language

Email: marjonaikramova118@gmail.com

Annotation: This article analyzes the importance of various pedagogical methods in increasing students’ activity. It explains that using interactive methods in

the educational process not only raises students' interest in lessons, but also helps them express their own independent ideas and effectively acquire knowledge. In addition, the article shows that properly selected methods can enhance students' active participation during the lesson. According to a many of research findings, the use of modern pedagogical methods plays an important role in improving the effectiveness of education.

Key words : Methods, traditional way, interactive, passive, role, effectively, project based learning (PBL) , activate, role playing, funny riddle, brainstorming

ПОВЫШЕНИЕ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ С ПОМОЩЬЮ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ

Икромова Маржона Иброхимовна

Студентка Наманганского государственного института иностранных языков

Email: *marjonaikramova118@gmail.com*

Аннотация: Данная статья анализирует значение различных педагогических методов в повышении активности учащихся. В процессе обучения использование интерактивных методов не только повышает интерес учащихся к занятиям, но и способствует развитию их самостоятельного мышления, а также более эффективному усвоению знаний. Кроме того, показано, что правильно подобранные методы активизируют участие учащихся в учебном процессе. Согласно результатам многочисленных исследований, применение современных педагогических подходов играет важную роль в повышении эффективности образования.

Ключевые слова: методы, традиционные подходы, интерактивный,

пассивный, задания, эффективность, проектное обучение, активизация деятельности, ролевые игры, занимательные загадки, свободный выбор идей.

INTRODUCTION

Zamonaviy ta’lim jarayonida o’quvchilarning bilim olishga qiziqishini oshirish shu bilan birga, ularning darslarda faol ishtirokini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, chet tillarini o’rganish juda murakkab va zerikarli jarayon sifatida qaraladi. Til o’rganishni osonlashtirish va yanada samarali qilish uchun o‘qituvchilar interactive metodlardan (So‘z o‘yinlari, rol o‘yinlari, guruhli vazifalar va h.k.) foydalanishmoqda. Bu turdagi yondashuv nafaqat o’quvchilarning darslarni qiziqarli qiladi, balki o’quvchilarga bilimlarini chuqurroq o’rganishlariga ham yordam beradi.

Interaktiv ta’limning asosiy asoslari: erkin so’zlashuvlar, ta’lim materialini taqdim etish, maruza sifat o’tadigan darslar sonini kamaytirish, o’quvchilarga tashabbuskorlik ko’rsatish imkoniyatlari, katta guruhlar, kichik guruhlar va sinf jamolarida ishlash uchun topshiriqlar berish va shu bilan birga ta’lim samaradorligini oshirishda yordam beradigan boshqa metodlar.

Shu jihatdan qaraganda, interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonini jonlatirishga hizmat qiladi. O‘quvchilar bu kabi metodlarni bajarish orqali o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirokchisiga aylantiradi va olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llashga imkon beradi. Bu borada, Benjamin Franklinning, “Menga aytsangiz – unutaman, o‘rgatsangiz – eslab qolishim mumkin, lekin jarayonga jalb qilsangiz – tushunaman.”[1] Ushbu fikr o’quvchini dars jarayoniga turli xil metodlar orqali jalb etish uning bilimlarini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Adabiyotlar sharhi

[1] Benjamin Franklin. (n.d.). *Tell me and I’ll forget; teach me and I may remember; involve me and I’ll understand.*

Paulo Freire o'zining "Pedagogy of oppressed"[2] kitobida an'anaviy ta'lim usullarni tanqid qiladi. U ta'kidlaganidek, an'anaviy darslarda o'qituvchi o'quvchilarga ma'lumotlarni beradi, o'quvchilar esa ularni ko'chirishadi huddi maruzadek. Buday usulda o'quvchi doim passiv qabul qiluvchi sifatida qoladi – bu kabi usul ta'limda "Qobiqlashgan ta'lim modeli"[3] deb ataladi. Bunday yondashuv o'quvchilarning ijodiy fikrlanishini rivojlantirmaydi aksincha faoligini susaytiradi. Shu sababli ko'plab tatqiqotchilar faol va ijodiy o'quvchi shakllanishi uchun intreaktiv metodlarni tavsiya beradi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi darsda hamkor bo'lib, birgalikda bilim hosil qiladi.

Chet tillarini o'rganishda interativ metodlarning muhim ekanligini tasdiqlovchi manbalar ham yo'q emas. Jeremy Harmer (2015) ta'kidlaganidek, samarali til o'qitish jarayonida jarayonida o'quvchilarning faol ishtiroki hal qiluvchi rol o'ynaydi. U o'zining ESA (Engage, study, activate) modelida darslarning "Activate" bosqichini alohida ajratib ko'rsatadi. Aynan shu bosqichda o'quvchi til bilimlarini passiv holda emas balki haqiqiy muloqot tarzda ishlatadi – bu esa uzoq muddatli o'zlashtirishni ta'minlab beradi. [4]

Shu bilan birga, intreraktiv metodlar o'quvchilarning o'zaro hamkorlik va kommunikativ qobiliyatlarini mustahkamlaydi.[5] Masalan, o'quvchilar guruhda bir-biriga savol berish, fikr almashish va muammolarni birgalikda yechish orqali nafaqat til bilimlarini, balkida ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarini ham rivojlantiradilar. Mana shu bilan birga boshqa bir tadqiqot natijalariga ko'ra intreaktiv yondashuvlarning tilni amaliyotga qo'llash va uzoq muddatli xotirada saqlashga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. [6] Bunga ko'ra, o'quvchilar passiv maruza

[2] Freire, P. (1970). *Pedagogy of the oppressed*. New York: Continuum.
[3] Freire, P. (1970). *Pedagogy of the oppressed*. New York: Continuum.

[4] Harmer, J. (2015). *The Practice of Language Teaching* (5th ed., pp. 54–65). Pearson Education Limited.
[5] Richard, J. C., Rodgers, T. S., & Smith, D. (2013). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
[6] Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition* (2nd ed.). Oxford University Press.

tinglovchisi kabi qolmasdan, dars markazida o'qituvchi bilan birga metodlarni qo'llagan holda tilni o'rganadilar.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirishdagi interaktiv metodlarning ahamiyatini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida umumiy o'rta ta'lim maktabida 20 nafar o'quvchi tanlab olindi. Va ular o'rtasida odatiy dars jarayoni 4 hafta davomida olib borildi. Dars jarayonlarida turli interaktiv metodlar muntazam qo'llanildi. Xususan, guruhli muhokamalar, rolli o'yinlar, " aqliy hujum" va savol-javob usullari ishlatildi. Ushbu metodlar o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish va ularning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida tanlandi. Va quyidagi interaktiv metodlar o'rganuvchilarga samarali hisoblanadi:

1. Rolli o'yinlar (Role playing) metodi: O'quvchilar guruhlarga bo'linib, kundalik hayotdagi vaziyatlarni ya'ni do'kondagi holat, shifoxonadagi xolat kabi rollarni o'ynaydi. Bu metod orqali til ko'nikmalari tabiiy muhitda rivojlanadi va gaprishdan qo'rqishni bartaraf etadi.

2. Erkin go'ya tanlash (Brainstorming) metodi: Bu metod o'quvchilarga mustaqil va mantiqiy fikrlash, yangi mavzuni yaxshiroq esalab qolishga yordam beradi. O'quvchilar biror mavzuni ihtiyoriy tanlab shu bo'yicha xohlagancha g'oyalarini bildiradi, hech kim tanqid qilmaydi.

3. Loyihalar asosida o'rganish (Project based learning, PBL) metodi: O'qituvchi tomonida o'quvchilarga qiziqlarli va real muammolarni hal qilish uchun biror bir mavzudagi loyiha yaratish topshiriladi. Va ular guruh-guruh bo'lib, birgalikda muammoga yechib topishadi. Bu tanqidiy fikrlash, hamkorlik va chuqur o'rganishni rag'batlantiradi.

4. Qiziqarli topishmoqlar (Funny riddle): O’quvchilarga turli mavzular yoki yangi o’tilgan dars bilan bog’liq topishmoqlar o’qitiladi va berilgan ta’rif asosida javob topishlari so’raladi. Shu bilan birga dars biroz bo’sada qiziq va interaktiv tarzda o’tadi. Bu kabi metodlarni nafaqat maktab yoshidagi o’rganuvchilar bilan balki boshqa universitet talabari bilan ham o’tkazish mumkin. Bu bilan darslar samaradorligi oshiriladi.

Tanlab olingan o’quvchilarda ushbu metodlar qo’llanildi. Bu metodlar joriy etilgunga qadar ko’plab o’quvchilar og’izaki topshiriqlarda passiv holada qatnashishar, o’qituvchi tomonida berilgan savollarga ixtiyoriy javob berish yoki suhbatni boshlashgan kamdan-kam hollarda unurnishar edi. O’quvchilarning katta qismi gapirishda qochib to o’qituvchi so’ramagunga qadar jim o’tirishar edi. Biroq 4 hafta davom etgan tadqiqotda qo’llanilgan muntazam interaktiv metodlar yordamida o’quvchilarning harakatlarida sezilarli darajada o’zgarishlar kuzatildi. O’quvchilar guruh yoki juft-juft bo’lib ishlashganda faolroq ishtirok eta boshlashdi. Oldinlari darslarga qiziqmay orqa partalarda jim o’tiradigan o’quvchilar, ayniqsa rol o’yinlarini o’ynashda va qiziqarli topishmoqlar aytish va topishda faol qatnasha boshladilar.

Natijalar va muhokama

Tadqiqot davomida 4 hafta mobaynida 20 nafar o‘quvchiga interaktiv metodlar qo‘llanildi va sezilarli natijalar kuzatildi. Dastlab o‘quvchilarning aksariyati darslarda passiv edi. O‘qituvchi savol bermaguncha ko‘pchilik gapirmas, og‘zaki topshiriqlarda esa faol qatnashmas edi. Ammo interaktiv metodlar muntazam qo‘llanila boshlagach, hatto birinchi hafta oxiridayoq ijobiy o‘zgarishlar ko‘rina boshladi. O‘quvchilar asta-sekin darslarda faolroq bo‘lib bordi. Rolli o‘yinlar ayniqsa samarali bo‘ldi. O‘quvchilar do‘kon yoki shifoxona kabi kundalik

vaziyatlarni sahnalashtirish orqali gapirishdagi qo‘rquvini yenga boshladi. Oldin jim o‘tiradigan o‘quvchilar ham bu faoliyatda faol ishtirok etdi. Brainstorming mashg‘ulotlarida esa o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ayta boshladi. Bu ularga mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam berdi. Loyiha asosida o‘rganish (PBL) davomida guruhda ishlash, birgalikda muammo yechish ko‘nikmalari yaxshilandi. Qiziqarli topishmoqlar esa darsni yanada jonli va qiziqarli qildi, natijada o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshdi. Umuman olganda, 4 hafta ichida o‘quvchilarning faolligi ancha oshdi. Ular juft va guruh ishlarida ko‘proq qatnasha boshladi, o‘z fikrini aytishga harakat qildi va ingliz tilida gapirishdan kamroq tortinadigan bo‘ldi. Bu natijalar faol o‘rganish muhitining qanchalik muhim ekanini yana bir bor ko‘rsatdi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot interaktiv ta’lim metodlarining chet tillarini o’rganuvchi o’quvchilar natijalariga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Darslarga intreaktiv yondashuv o’quvchilarga o’zlariga bo’lgan ishonchlarini va o’zlarini namoyon qila olish qobiliyatini ochib bera oldi. Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, intreaktiv metodlar o’quvchilarning tilni amaliyotda qo’llash va uzoq muddat xotirada saqlash qobiliyatini ham yaxshiliab berdi. O’quvchilar endi passiv ishtirokchilar emas balki dars jarayonlarida “student-centred” metodini qo’llagan holda tilni yanada samarali o’rganishlari kuzatildi. Natijalar ta’limda intreaktiv metodlarni joriy etishning muhimligini ta’kidlaydi, bu esa o’quvchilarning o’rganish natijalarini yaxshilash va ularni 21-asr sharoitida muvaffaqiyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Benjamin Franklin. (n.d.). *Tell me and I’ll forget; teach me and I may remember; involve me and I’ll understand.*

2. Freire, P. (1970). *Pedagogy of the oppressed*. New York: Continuum.
3. Harmer, J. (2015). *The Practice of Language Teaching* (5th ed., pp. 54–65). Pearson Education Limited.
4. Richard, J. C., Rodgers, T. S., & Smith, D. (2013). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition* (2nd ed.). Oxford University Press.